

"Usmonota" mahallasida "YANGI O'ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASH" ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbiri

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va ularni targ'ib qilish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ulardan yana biri "YANGI O'ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASH" shiori ostida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar xisoblanadi. Bu tadbir keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilib, mamlakatimiz xayotida sodir bo'layotgan islohotlarni targ'ib qilishda o'z samarasini bermoqda. Mamlakatimiz bo'ylab olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlarni o'tkazishda Gidrotexnika qurilishi fakulteti "Suv energiyasi va nasos statsiyalaridan foydalanish" kafedrasи professor-o'qituvchilari ham o'z xissalarini qo'shmoqda. Kafedra professor-o'qituvchilari 2020-yil 20-noyabr kuni O'rta Chirchiq tumani Usmonota MFY da o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirda faol ishtirok etishdi. Tadbida Usmonota MFY fuqorolari, O'rta Chirchiq tumani madaniyat xodimlari va 39-maktab faol yoshlari ishtirok etishdi. Tadbirni kafedra o'qituvchilari Berdiyev Mustafo va Shodiyev Boburlar ochib berdilar. Ular ishtirokchilarga "Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarni mazmun-mohiyati va axamiyati" mavzusida ma'ruza qilishdi. Tadbir davomida Usmonota MFY raisi Xamidov Bahodir so'zga chiqib, mahallaning faol aholisi orasida o'nak bo'ladigan oilalarga esdalik sovg'alarini ularashdi. O'rta Chirchiq tumani madaniyat xodimlari va 39-maktab faol yoshlari esa tadbir ishtirokchilarini o'z chiqishlari va sahna ko'rinishlari bilan xushnud etishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati